

## XORIJY SAYYOH VA TARIXCHI TADQIQOTCHILAR ASARLARIDA O'RTA OSIYO TARIXIGA DOIR MA'LUMOTLAR (XIX-XX ASR BOSHLARI)

*Guliston davlat pedagogika instituti tarix kafedrası katta o'qituvchisi*

**Hakimov Ravshan Raimovich**

*Guliston davlat pedagogika instituti 1-kurs talabasi*

**Turdiboyeva Dilbar Anvar qizi**

*Guliston davlat pedagogika instituti 1-kurs talabasi*

**Saydinova Barno Hayrulla qizi**

**Annotatsiya:** *Bu maqolada XIX–XX asr boshlarida O'rta Osiyoga tashrif buyurgan xorijiy sayyohlar, diplomatlar, harbiy razvedkachilar va tarixchi-tadqiqotchilar qoldirgan asarlar tahlil qilinadi. Ularning kuzatuvlari mintaqaning siyosiy tuzilishi, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, urf-odatları, shaharsozlik madaniyati va xalqning turmush tarzi haqida muhim ma'lumotlar beradi. A. Vamberi, N. Xonikov, Ya. Blok, Ch. Ker, G. Arminiy kabi tadqiqotchilarning asarlari solishtirma usulda ko'rib chiqilib, ular tasvirlarining ilmiy ahamiyati va tarixiy haqiqatga mosligi baholanadi. Xorijiy manbalar O'rta Osiyo tarixining muayyan davrlarni yoritishda qo'shimcha faktologik asos bo'lib xizmat qiladi. Bu manbalarning tarixshunoslikdagi o'rni va bugungi tadqiqotlar uchun ahamiyatini aniqlashga qaratilgan.*

**Kalit so'zlar:** *O'rta Osiyo tarixi; xorijiy sayyohlar; XIX asr; XX asr boshlar; tarixchi tadqiqotchilar; etnografik kuzatuvlar; tarixiy manbalar; Vamberi; Markaziy Osiyo; tarixshunoslik.*

**Аннотация:** *В данной статье анализируются труды иностранных путешественников, дипломатов, военных разведчиков и историков-исследователей, посетивших Среднюю Азию в XIX – начале XX веков. Их наблюдения предоставляют важную информацию о политическом устройстве региона, социально-экономической жизни, обычаях, градостроительной культуре и образе жизни населения. Труды таких исследователей, как А. Вамбери, Н. Ханыков, Я. Блок, Ч. Кер, Г. Арминий, рассматриваются в сравнительном аспекте, оцениваются их научная значимость и степень соответствия исторической действительности. Иностранные источники служат дополнительной фактологической основой для освещения отдельных периодов истории Средней Азии. Исследование направлено на определение места этих источников в историографии и их значения для современных научных работ.*

**Ключевые слова:** *История Средней Азии; иностранные путешественники; XIX век; начало XX века; историки-исследователи; этнографические наблюдения; исторические источники; Вамбери; Центральная Азия; историография.*

**Abstract:** *This article analyzes the works of foreign travelers, diplomats, military intelligence officers, and historian-researchers who visited Central Asia in the 19th and early 20th centuries. Their observations provide valuable information about the region's political structure, socio-economic life, customs, urban culture, and the lifestyle of its*

*people. The works of researchers such as A. Vambery, N. Khanykov, Ya. Blokh, Ch. Kerr, and G. Arminius are examined comparatively, assessing their scholarly significance and the extent to which their descriptions correspond to historical reality. Foreign sources serve as an additional factual basis for studying specific periods of Central Asian history. The study aims to determine the historiographical role of these sources and their importance for contemporary research.*

**Keywords:** *Central Asian history; foreign travelers; 19th century; early 20th century; historian-researchers; ethnographic observations; historical sources; Vambery; Central Asia; historiography.*

### **Kirish**

XIX asr va XX asr boshlarida O'rta Osiyo hududi jahon ilmiy jamoatchiligi e'tiborini tobora ko'proq jalb eta boshlagan mintaqalardan biri bo'ldi. Bu davrda mintaqaga tashrif buyurgan xorijiy sayyohlar, diplomatlar, harbiy razvedkachilar, missionerlar va professional tarixchi-tadqiqotchilar tomonidan yozilgan kundaliklar, safar xotiralari, etnografik tasvirlar hamda ilmiy hisobotlar bugungi tarixshunoslik uchun muhim birlamchi manbalar sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur yozma manbalarda o'sha davrdagi Buxoro amirligi, Xiva xonligi va Qo'qon xonligining siyosiy tuzilishi, davlat boshqaruvi, soliq tizimi, qo'shin tuzilishi, savdo yo'llari, shahar infratuzilmasi, qishloq xo'jaligi va aholi turmush tarzi haqida ko'plab tarixiy faktlar, kuzatishlar va bevosita guvohliklar qayd etilgan. Arminiy Vamberi (1832–1913), Nikolay Xonikov (1819–1878), Ch. E. Stewart, Ejnar Olufsen (1864–1936), Yan Blok, P. P. Semenov-Tyan-Shanskiy, A. Kun, V. Nalivkin kabi tadqiqotchilarning asarlari O'rta Osiyo tarixining ayrim jihatlarini yoritishda alohida manba sifatida qadrlanadi.[1]

Xorijiy manbalar o'sha davr mintaqasi haqida Yevropa tasavvurini shakllantirgan, shu bilan birga ichki siyosiy jarayonlar, qabila va urug'lararo munosabatlar, ijtimoiy tabaqalanish hamda madaniy hayotning turli qatlamlariga doir aniq ma'lumotlarni taqdim etgan. Vamberining "Travels in Central Asia" asarida Buxoro amirligidagi siyosiy vaziyat, davlat arboblari orasidagi munosabatlar va saroy tartib-qoidalari batafsil tasvirlangan bo'lsa, Olufsenning Turkmaniston bo'yicha tadqiqotlarida turkman qabilalarining xo'jalik faoliyati, an'anaviy kiyimlari, uy-joy qurilishi va ijtimoiy tuzilmasi haqida etnografik ma'lumotlar jamlangan. Xonikov va Nalivkinning yevropacha ilmiy yondashuv asosida yozilgan asarlarida esa mintaqaning geografik xususiyatlari, aholining etnik tarkibi, mahalliy boshqaruv tizimi hamda qo'shni davlatlar bilan munosabatlar qiyosiy tahlil etiladi.[2] XIX–XX asr boshlariga oid xorijiy manbalar bugungi tarixshunoslikda nafaqat qo'shimcha daliliy materialni taqdim etadi, balki o'sha davr O'rta Osiyosining tashqi dunyo nigohidagi tasvirini ham ochib beradi. Ushbu manbalarni ilmiy tahlil qilish mintaqaning siyosiy jarayonlari, iqtisodiy rivoji va madaniy holatiga oid tasavvurlarni yanada boyitadi, tarixiy jarayonlarni ob'ektiv yoritishga xizmat qiladi.

Asosiy qism

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida O'rta Osiyoga qiziqishning ortishi Yevropa va Rossiya imperiyalarining geosiyosiy manfaatlari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, aynan shu davrda mintaqaga ko'plab xorijiy sayyohlar, elchilar, harbiy razvedkachilar va ilmiy tadqiqotchilar tashrif buyurdi. Ularning safar kundaliklari, ilmiy ekspeditsiya hisobotlari, kuzatuvlar to'plami bugungi tarixshunoslik uchun nihoyatda qimmatli manbalardir. Bu asarlar nafaqat mintaqaning siyosiy va iqtisodiy hayotini yoritadi, balki mahalliy aholi turmush tarzi, diniy an'analari, savdo- sotiq tizimi, shaharsozlik madaniyati va ijtimoiy munosabatlar haqida ham batafsil ma'lumot beradi.

Xorijiy sayyohlar orasida eng mashhur shaxslaridan biri Armini Vamberidir. Uning 1863-yilda Samarqand, Buxoro va Xiva hududlariga qilgan sayohati natijasida yozilgan "Travels in Central Asia" asari Yevropada katta qiziqish uyg'otgan. Vamberi o'zini darvesh sifatida tanishtirib, mintaqaga bo'ylab erkin harakatlana olgan va shu bois uning asarlarida saroy hayoti, amirlikdagi siyosiy ziddiyatlar, diniy ta'limotlar, mahalliy aholi urf-odatlar haqida juda ko'p aniq ma'lumotlar uchraydi.[3] U Buxoro amirligida qullik tizimi, qat'iy diniy nazorat, amir saroyidagi marosimlar va mahalliy amaldorlar o'rtasidagi kuch kurashlarini batafsil qayd etadi. Vamberining yozishicha, Buxoroda XIX asr o'rtalarida "mirzaboshi", "qo'shbegi", "devonbegi" kabi lavozimlar davlat boshqaruvida katta rol o'ynagan, soliq tizimi esa dehqon qatlamiga jiddiy yuk bo'lgan.

Nikolay Xonikov. Uning "Opisaniye Bukharskogo khanstva" va "Opisaniye Khivinskogo khanstva" asarlarida Buxoro va Xiva davlatlarining geografiyasi, irrigatsiya tizimi, savdo yo'llari, aholi tarkibi va etnik guruhlar haqida keng qamrovli ma'lumotlar beriladi. Xonikov o'z asarlarida Zarafshon vodiysidagi sug'orish kanallari, Xiva atrofidagi Amudaryo deltasi, Karvon yo'llarida joylashgan rabotlar, Soliq yig'ish usullari kabi aniq ijtimoiy- iqtisodiy masalalarni batafsil tahlil qiladi. Xorazmda "zakot", "tanobona" va "xiroj" kabi soliq turlari mavjudligini qayd etgan. XIX asr oxiri — XX asr boshlarida Yevropa tadqiqotchilari orasida turkman qabilalari hayotini o'rganishga ixtisoslashgan shaxslar ham bo'lgan. Daniyalik etnograf Ejnar Olufsenning "The Tribe of the Turkomans" asari turkmanlarning xo'jalik yuritish usullari, chorvachilik madaniyati, an'anaviy kiyim-kechaklari, o'tov qurilishi, urug'-qabila tarkibi haqida juda aniq kuzatuvlarni o'z ichiga oladi. Olufsenning tadqiqotlarida Go'klan va Yomut qabilalarining ijtimoiy tuzilishi, oila boshlig'ining mavqei, ayollarning mehnat jarayonidagi roli ham faktlarga tayangan holda yoritilgan. U Kaspiybo'yi hududining o'ziga xos iqtisodiy imkoniyatlari, bozorlardagi mahsulot ayirboshlash jarayonlari haqida ham batafsil yozgan.

Bu davrda Rossiya imperiyasi tomonidan yuborilgan ilmiy ekspeditsiyalar ham muhim manba bo'lib xizmat qiladi. V. Nalivkin va M. Nalivkinalarning Farg'ona vodiysi bo'yicha yozgan etnografik ishlari mintaqadagi qishloq jamoalari, mahalla boshqaruvi, ayollar hayoti, maktab- madrasalar tarmog'i hamda hunarmandchilik faoliyatini tasvirlab beradi. CNalivkinlar yozganidek, Farg'onada XIX asr oxirida mahalliy aholining asosiy mashg'uloti dehqonchilik va bog'dorchilik bo'lib, irrigatsiya tizimi esa "ariqchi" va "mirab"lar tomonidan boshqarilgan. ingliz va fransuz tadqiqotchilari Ch. MacGregor, P. de La Garde, Yan Blok, Ch. E. Stewart kabi sayyohlar o'z asarlarida Buxoro, Xiva va

Qo'qon davlatlarining geosiyosiy ahamiyati, Buyuk Britaniya va Rossiya o'rtasidagi "Buyuk o'yin" doirasida mintaqaning strategik o'rni haqida aniq ma'lumotlar keltiradi. Ularning asarlarida temiryo'l qurilishi, savdo-sotiq aloqalari, karvon yo'llari xavfsizligi, chegara hududlaridagi harbiy harakatlar kabi amaliy tarixiy faktlar tasvirlangan.

Xorijiy manbalar orasida ayrim subyektiv qarashlar ham uchraydi. Ayrim G'arb mualliflari mintaqani "ekzotik", "yovvoyi", "o'zgarmas" deb tasvirlashga urinadi, bu esa orientalistik yondashuvning o'ziga xos ko'rinishidir. Biroq shunga qaramay, ularning asarlarida mavjud bo'lgan faktlar, aholi soni, bozorlardagi narxlar, qo'shinning tarkibi, soliq turlari, irrigatsiya tizimi, shahar darvozalari va bozorlarning tuzilishi haqidagi ma'lumotlar tarixshunoslik uchun yuqori qiymatga ega. Mazkur manbalar mahalliy tarixiy hujjatlar bilan taqqoslanganda, ko'plab jarayonlarga tashqi nigohdan yondashish imkonini beradi. XIX–XX asr boshlarida xorijiy sayyohlar va tarixchi tadqiqotchilar tomonidan yozilgan asarlar O'rta Osiyo tarixining siyosiy hayoti, ijtimoiy-iqtisodiy tizimi, etnografik tuzilishi va madaniy rivojiga doir muhim faktlar majmuini o'z ichiga oladi. Bu manbalar mintaqaning ko'p qirrali tarixiy jarayonlarini tushunishda, tarixiy voqealarni qayta tiklashda hamda zamonaviy tarixshunoslikda ob'ektiv yondashuvni ta'minlashda beqiyos ahamiyat kasb etadi.

XIX–XX asr boshlarida O'rta Osiyo haqida ma'lumot bergan manbalar orasida harbiy razvedkachilarning hisobotlari alohida o'rin tutadi. Chunki ularning maqsadi faqat etnografik yoki ilmiy kuzatuv emas, balki siyosiy va strategik ma'lumot to'plash bo'lgan. Ingliz razvedkachisi Kapitan Artur Conolly (1807–1842) tomonidan Hindiston chegaralaridan Buxoro sari yurish davomida qayd etilgan ma'lumotlar Buxoro amirligining siyosiy vaziyati, saroy ichidagi taxt uchun kurashlar, amir Nasrullohning markaziy hokimiyatni mustahkamlash siyosati haqida bevosita guvohlik beradi. Conolly ayniqsa Buxoro qamoqxonalari, "Arki Buxoro"dagi siyosiy tartib, amirning shubha va nazorat siyosati haqida batafsil yozib qoldirgan. Uning qaydlariga ko'ra, Buxoroda XIX asrning 30–40-yillarida amirlik armiyasi 20 mingga yaqin askardan iborat bo'lib, ulardan 6 ming nafari sarbozlar bo'lgan.[4] Rus harbiy xizmatchilari tomonidan to'plangan ma'lumotlar ham tarixiy ahamiyatga ega. G. A. Arandarenko, A. L. Kun, N. Veselovskiy, D. Logofet kabi ekspeditsiya a'zolari Xiva va Qo'qon xonliklari bo'yicha topografik xaritalar, shaharlarning muhandislik tuzilishi, qal'a devorlari qalinligi, aholi soni, bozorlardagi mahsulotlar ro'yxati, karvon yo'llaridagi masofalar kabi aniq faktlarni qayd etgan. Logofetning 1903-yilda Farg'ona vodiysida o'tkazgan kuzatuvlarida Qo'qon shahrining o'sha davrdagi aholisi 80 ming atrofida ekanligi, shahar atrofida 300 dan ortiq hunarmandchilik ustaxonalari faoliyat ko'rsatganligi, bozorlarda asosiy savdo ipak, paxta va yog'och mahsulotlariga bog'liqligi ta'kidlanadi.[5]

P. P. Semenov-Tyan-Shanskiyning geografik tadqiqotlari bo'lib, u O'rta Osiyo tog' tizimlari, Farg'ona vodiysi relyefi, Pomir hududi iqlimi haqida juda aniq ilmiy ma'lumotlar bergan. Uning yozishicha, XIX asr oxirida Farg'ona vodiysidagi asosiy ekin yerlarining 70 foizi an'anaviy ariq va kanallar orqali sug'orilgan, bu tizim esa mahalliy suv bo'lish tartibi "mirabchilik" orqali boshqarilgan.[6] Fransuz sayyohlari va missionerlari tomonidan yozilgan asarlar ham mintaqa tarixi uchun qimmatli. P. de La

Garde o'z asarlarida O'rta Osiyodagi karvon savdosi tizimini, "Buyuk ipak yo'li"ning qolgan bo'laklarida saqlanib qolgan bozor tamoyillarini yoritadi. U ayniqsa Samarqand va Buxoro bozorlari haqida aniq ma'lumotlar beradi: 1890- yillarda Buxorodagi "Chorsu" bozorida 40 dan ortiq savdo rastalari bo'lib, ularning har biri ma'lum hunarmandchilik turiga ixtisoslashgan edi zargarlik, kulolchilik, temirchilik, chitfuroshlik, gilamchilik va boshqalar.

O'rta Osiyo tarixini mazmunan yoritishda ingliz tadqiqotchisi O. Stenlining ma'lumotlari ham muhim. U Turkiston general-gubernatorligi tashkil topganidan keyin mintaqadagi siyosiy o'zgarishlarni, rus ma'muriy tizimining kirib kelishi, paxta yetishtirish hajmining ortishi, yangi temiryo'l liniyalarining qurilishi natijasida savdo aloqalarida yuz bergan o'zgarishlarni qayd etadi. Stenli yozganidek, 1898-yilda Transkaspiy temiryo'lining ishga tushirilishi bilan Rossiya va O'rta Osiyo o'rtasidagi savdo hajmi ikki baravarga oshgan, paxta eksporti esa mintaqa iqtisodiyotining asosiy tarmog'iga aylangan. Bu davrda O'rta Osiyo bo'yicha turli tilda yozilgan ma'lumotlar ko'pincha o'zaro solishtirish imkonini beradi. Vamberi Buxorodagi diniy tartib-qoidalarning keskinligini ta'kidlagan bo'lsa, rus manbalarida bu holat yanada sinchiklab, statistik ma'lumotlar orqali yoritilgan. Nalivkinning Farg'ona vodiysi bo'yicha bergan ma'lumotlari ingliz tadqiqotchisi MacGregor qayd etgan faktlar bilan solishtirilganda mintaqaning demografik tarkibi va harbiy salohiyati haqida yanada aniq tasavvur hosil qilish mumkin bo'ladi. Xorijiy manbalarda O'rta Osiyoning madaniy hayoti, san'ati, ta'lim tizimi, maktab-madrasalar faoliyati haqida ham qimmatli ma'lumotlar uchraydi. 1900-yillarda Turkiston o'lkasida 10 mingdan ortiq maktab va madrasa mavjud bo'lgani, Buxoroda esa 360 dan ziyod madrasa faoliyat yuritgani haqidagi raqamlar fransuz va rus manbalarida uchraydi.[6] Ingliz tadqiqotchisi Stewart o'z asarlarida madrasalarda Qur'on o'qitish usullari, talabalarning kundalik mashg'ulotlari, ustoz-murid tizimi haqida batafsil yozib qoldirgan

#### Xulosa

XIX–XX asr boshlarida O'rta Osiyoga kelgan xorijiy sayyohlar, diplomatlar, harbiy razvedkachilar va professional tadqiqotchilar tomonidan qoldirilgan yozma manbalar bugungi tarixshunoslik uchun nihoyatda muhim ahamiyatga ega. Bu asarlar mintaqaning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotiga oid birlamchi tarixiy ma'lumotlarni o'zida mujassam etgan bo'lib, ular O'rta Osiyo davlatlarining o'sha davrdagi real holatini tashqi nigoj orqali aks ettiradi. Tahlil shuni ko'rsatadiki, Vamberi, Xonikov, Olufsen, Nalivkin, Conolly, MacGregor, Stewart, de La Garde kabi mualliflarning asarlari o'z tabiati, yozilish maqsadi va kuzatuv doirasiga ko'ra farq qilsa-da, ularni mintaqa tarixining qimmatli manbalari sifatida birlashtiruvchi jihatlar ko'p. Ularning asarlarida aholi tarkibi, soliq tizimi, irrigatsiya inshootlari, harbiy kuchlar, savdo yo'llari, turmush tarzi, diniy an'ana va ma'rifiy muassasalar faoliyati kabi masalalarga oid aniq faktlar keltirilgan. Xorijiy manbalarning muhim tomoni shundaki, ular mahalliy tarixiy hujjatlar bilan qo'shib o'rganilganda mintaqaning tarixiy tasvirini yanada to'liqroq tiklash imkonini beradi. Ko'plab manbalarda qayd etilgan ma'lumotlar bir-birini tasdiqlaydi yoki to'ldiradi; masalan, Buxoro va Xiva soliq tizimi, Farg'onadagi

irrigatsiya boshqaruvi yoki turkman qabilalarining xo'jalik faoliyati bo'yicha ma'lumotlar turli mualliflarda bir xil yoki yaqin shaklda uchrashi ularning ishonchliligini oshiradi. Ayrim mualliflarning siyosiy vazifasi yoki geosiyosiy manfaatlar ta'sirida shakllangan subyektiv yondashuvlari ham mavjud bo'lib, bunday holatlar ilmiy tahlilda ehtiyotkorlikni talab qiladi. Bu esa manbalarni kompleks ravishda, qiyoslash va tekshirish usullariga tayangan holda o'rganish zarurligini ko'rsatadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Arminiy Vamberi. Markaziy Osiyo bo'ylab sayohat. Toshkent "Fan", 1993. 243 b.
2. N. V. Xanikov. Buxoro xonligi haqida tadqiqotlar. Toshkent "Sharq", 2001. 104 b.
3. E. Shavanning muharrirligida. Turkiston to'plami.- Toshkent "Yangi asr avlodi", 2010. 156 b.
4. A. Meyendof. Buxoro sayohat kundaligi.- Toshkent "Fan", 1992. 99 b.
5. D. L. Brokgauz va M. V. Yefron. Entsiklopedik lug'at. Turkiston maqolalari. Toshkent "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", 2004. 111 b.
6. G. E. Grumm-Grjimaylo. Markaziy Osiyo tabiati va etnografiyasi bo'yicha kuzatuvlar.- Toshkent "Universitet", 1998 123 b.